

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR

To‘ychiboyeva Marhabo

Farg‘ona Davlat Universiteti Xorijiy til va adabiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Shermamatova Sevara

Mas’ul muallif

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan global ekologik muammolar va ularning kelib chiqish sabablari, shuningdek bu muammolarni inson salomatligiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Orol fojiasi, karbonat angidrid, issiqxona, ozon qatlami, tropik, toksik, bioxilmoxillik, cho’llanish.

Inson tabiatning bir qismidir va sayyoramiz uchun eng xavfli falokatlar va atrof-muhitning ifloslanishi u bilan bog’liq. Ilmiy -texnik inqilob, sanoatning ulkan o’sishi va insonning ishlab chiqarish faolligining oshishi sayyoramiz qiyofasini o’zgartirmoqda. Insoniyat tarixida jamiyat o’z faoliyatini tabiat imkoniyatlari bilan aniq o’lchashga majbur bo’lgan davr keldi. “Ilgari tabiat odamni qo’rqitgan, hozir esa odam tabiatni qo’rqitadi”, - deydi fransuz tadqiqotchisi Jak Iv Kusto. Tez ilmiy -texnik taraqqiyot davriga kirib, ko’pchilik odamlar cheksiz ekspluatatsiyaning mumkin bo’lgan oqibatlari haqida o’ylamaydilar.[1].

Hozirgi vaqtida insoniyat eng keskin global ekologik muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolarni hal etish xalqaro tashkilotlar, davlatlar, mintaqalar, jamoatchilikning zudlik bilan birlashtirishiga sa’y-harakatlarini taqozo etadi. Aholi sonining o’sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o’rmonlar ko’payish o’rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o’zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanyapti. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o’rmon yong’inlari, chang bo’ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur yetkazyapti. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e’tiborini yana bir bor davrimizning o’tkir muammolaridan biri — Orolbo’yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: “Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta’sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o’zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug’dirmoqda”.[2].

Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me’yordan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo’lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo — global iqlim o’zgarishi yuzaga keldi. Shuningdek, ozon qatlaming yemirilishi,

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

dunyo okeanining ifloslanishi, tuproq unumdor qatlaming yo'qolib borishi, tropik o'rmonlarning kesilishi, cho'llanish, chuchuk suv manbalari va bioxilmassallikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko'payishi, kimyoviy va toksik moddalarni zararsizlantirish kabi ekologik inqirozlar allaqachon bir davlat chegarasidan chiqib, tom ma'noda global ekologik muammolarga aylandi.

Ekologik salomatlik masalasi milliylikdan xalqaro miqyosda rivojlanib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan doimiy e'tibor predmetiga aylandi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, aholining salomatlik holati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga 50-60 foizga, ekologik muammolarni hal etishga 20-30 foizga va faqat sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishiga 15-20 foizga bog'liq. Aholi salomatligi va jamiyat farovonligiga xavf solayotgan atmosfera havosi ifloslanishiga qarshi kurash atrof-muhitni muhofaza qilishda alohida o'rinn tutadi. JSSTning so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 7 million bevaqt o'lim holatlariga atmosfera havosi va xonalar havosi ifloslanishi sabab bo'lmoqda.[3]. Bugungi kunda havo ifloslanishi gipertoniya va ovqatlanish bilan bog'liq kasallikkarni kelib chiqishida xavf omillaridan keyingi o'rinda turadigan salomatlik uchun eng ahamiyatli global xavf omili hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'kidlash joizki, butun dunyoda ekologik barqarorlikka erishish, yer yuzining hozirgi holatini tubdan o'zgartirish uchun xalqaro hamkorlik, ekologik qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlikning qat'iy bo'lishi, aholining yuqori darajadagi ekologik ong va madaniyatini oshirishning o'zining kifoya qilib qolmasdan, balki barchamizni mas'uliyat hissi bilan yashashga undashga ham chaqiradi. Franklin Delano Ruzvelt tomonidan bildirilgan fikrlar barchamizni ogohlikka chorlab qolishi shubhasizdir. Tabiat in'om etgan tuhfalarni buzadigan xalq o'z ildiziga bolta uradi.[4]. Zero, tabiatni muhofaza qilish bu nafaqat Vatan oldidagi farzandlik burchimizdir, balki insoniyatning kelajak avlod uchun qoldirishi mumkin bo'lgan yagona va bebafo xazinasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Fransuz tadqiqotchisi Jak Iv Kusto.
2. Mirziyoyev Sh. BMT Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqidan.
3. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti.
4. Franklin Delano Ruzvelt. AQSH ning sobiq prezidenti.